



## YURIDIK TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

<sup>1</sup>Qurbonova Nigoraxon Nabiyevna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi,  
3-darajali yurist. Tel. +998913292651 nigoraqurbonova@mail.com,

<sup>2</sup>Abdurahimova Mohira Numonjonovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi o'quv-metodik bo'lim metodisti.  
3-darajali yurist. Tel +998939813707.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7413076>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> November 2022

Accepted: 28<sup>th</sup> November 2022

Online: 30<sup>th</sup> November 2022

### KEY WORDS

Ta'lim texnologiyalari,  
zamonaviy innovatsion  
pedagogik texnologiyar,  
ta'limni texnologiyalashtirish,  
innovatsion texnologiyalar,  
o'qitish vositalari, ta'limiy  
maqsad, an'anaviy  
ta'lim, tashabbuskor shaxs,  
mantiqiy fikrlash ko'nikmalari,  
tanqidiy fikrlash ko'nikmalari,  
ta'lim usullari.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada yuridik texnikumlarda mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasini bajaruvchi ta'lim tizimiga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib, mazkur ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar yuzasidan fikr yuritilgan. Shuningdek, ta'limni texnologiyalashtirish o'qitish jarayoniga texnologik yondoshish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarini tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalish bo'lib, zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ekanligi yuzasidan bahs yuritiladi.*

Mustaqil yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohadagi o'zgarishlar, shuningdek, fan va texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi bugungi kun mutaxassisiga qo'yiladigan talablarning o'zgarishiga olib keldi. Bu o'z o'rnida yuridik texnikumlarda tahsil olib, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning turli jabhalarida faoliyat yuritadigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasini bajaruvchi ta'lim tizimiga qo'yiladigan talablarning ham o'zgarishiga sabab bo'ldi. Endilikda yuridik texnikumda bilim olib, kichik mutaxassis bo'lib yetishib chiqayotgan yosh kadrlarga mustaqil fikr olish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali uchragan muammolarni

yecha olish, mustaqil ta'lim olib, malakasini uzluksiz oshirib borish, faoliyatini samarali olib borish uchun zarur ma'lumotlarni tez topa olish va ularni qo'llay olish, yangilik yarata olish, muammolarni hal etish yo'llarini o'ylab topa olish, muloqotga kirishuvchan bo'lish, hamkasblar bilan hamkorlikda ish olib bora olish, yangi g'oyalarni qabul qila olish, yangi sharoitlarga moslasha olish, o'z harakatlari uchun mas'uliyatni his qila olish, boshqaruv ko'nikmalarini yaxshi o'zlashtirish kabi sifatlarga ega bo'lish singari talablar qo'yilmoqda. Bunday mutaxassislarni tayyorlash esa ta'lim tizimida keng ko'lamlil islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bu islohotlar



o'quv muassasalarining ta'lim jarayoniga dunyo mamalakatlarining ta'lim tizimida tajriba sinovlaridan o'tgan zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyarni tadbqiq etishni talab etadi. Xo'sh, ta'lim texnologiyalari deganda nimalar nazarda tutiladi, ta'limni texnologiyalashtirish fikri qayerdan kelib chiqdi?

Ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasi Y.A.Komenskiy tomonidan ilgari surilgan bo'lib, texnologiya so'zi "Techne" – mahorat, san'at, malaka va "logos" – ta'limot, so'z degan ma'nolarni anglatadi. Ta'lim texnologiyasi mavjud sharoit va o'rnatilgan vaqtda belgilangan ta'limiy maqsad va ko'zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishni vositali ta'minlovchi, muloqot, axborot va boshqaruvning eng qulay hamda o'qitish vositalarining tartibli yig'indisidir. Ta'limni texnologiyalashtirish esa o'qitish jarayoniga texnologik yondoshish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarini tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalish hisoblanadi. Pedagogik texnologiya pedagogik hodisa va ta'limni texnologiyalashtirish sohasidagi jarayonda qo'llaniladigan tushunchadir. Mashhur pedagog olim V.P.Bespalko "Pedagogik tizim" atamasiga shunday ta'rif bergan: "Pedagogik tizim" shaxsning bor sifatlarini shakllantirish uchun tashkiliy maqsadga yo'naltirilgan va pedagogik ta'sir ko'rsatishni ko'zlagan, o'zaro bog'liq vosita, usul, jarayonlarning yig'indisini ifoda qiluvchi aniq yaxlitlikdir". Ta'limni texnologiyalashtirish bugungi kunning talabi ekan, zamonaviy ta'limning an'anaviy ta'limdan qanday farqi bor, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu o'rinda quyidagilarga to'xtalib o'tamiz:

An'anaviy ta'lim ta'lim oluvchiga yondoshish bo'yicha nazoratli-nasihatgo'y, egallab bo'lingan usul bo'yicha qayta tiklashli, ta'lim oluvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini bostiruvchi, qat'iy tashkil etilgan bo'ysunish asosidagi (avtoritar) ta'lim bo'lsa, zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va ta'limga tizimli-harakatli yondoshishga asoslanuvchi, ta'lim oluvchi shaxsi ta'lim jarayonining markaziy egasi hisoblanadigan ta'limdir. An'anaviy ta'limda ta'lim oluvchining tutgan o'rni va vazifasi ta'lim beruvchi ta'siridagi bo'ysunuvchi obyekt ekanligida bo'lsa, zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'limda ta'lim oluvchining tutgan o'rni va vazifasi mustaqil bilish faoliyatini olib boruvchi, ta'lim jarayonining teng huquqli subyekt ekanligidan iboratdir. An'anaviy ta'limda ta'lim beruvchining tutgan o'rni va vazifasi kitob bilan birga yagona tashabbuskor shaxs – bilish subyektini nazorat qiluvchi, asosiy bilim manbayi: boshqaruv organlarining rahbarlik buyruqlarini bajaruvchisi hisoblansa, zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'limda ta'lim beruvchining tutgan o'rni va vazifasi ta'lim oluvchilarning mustaqil o'rganish faoliyatlari tashkilotchisi, ularning mas'ul maslahatchisi va yordamchisi sanaladi.

Ko'rinib turibdiki, zamon talablariga javob beradigan huquqshunos kadrlar tayyorlashda aniq maqsadlarga yo'naltirilgan, muayyan natijalarni ko'zlaydigan va ko'zlangan maqsadlarga mos keluvchi ta'lim usullarini qo'llay olish bugungi kun pedagogidan kuchli bilim hamda mahoratni talab qiladi. Yuridik texnikumlarda olib boriladigan mashg'ulotlarda fanni o'qitishdan asosiy



maqsad bo'lajak huquqshunoslarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, talabalar tomonidan huquqiy fanlar, huquqiy kategoriyalar va tushunchalarni huquq institutlarida namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganish; milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy hujjatlarning asosiy mazmunini o'rganish va tahlil qilish; talabalar tomonidan huquqni qo'llash faoliyatiga oid ko'nikmalarga o'z qarashlarini shakllantirish orqali ega bo'lish; talabalarda huquqni himoya qilishga oid bilimlarni shakllantirish, talabaning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashishdan iborat. Belgilangan fan dasturlarida o'quvchilarning muayyan mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritishlariga, o'z ustlarida ko'proq ishlashlariga, bilim egallashning

tipiklashtirishdan umumlashtirishga qarab borish, dalillarni sharhlash va asoslash yo'sinlariga asosiy diqqat qaratish lozimligi ta'kidlab o'tilgan. Dasturning asosiy talablaridan biri talabalarni bir "qolip"ga solmay, ularning fikrlash doiralarini kengaytirish, o'z nuqtayi nazarini erkin ifodalay olishga imkon berish va mustaqil fikrlashga, tafakkur qilishga yo'naltirishdir. Unda o'rganiladigan mavzu yuzasidan yagona fikr, xulosa chiqarish yo'lidan borilmaydi, talabalarning har birini o'z fikri, o'z qarashlari bo'lishiga erishish ko'zda tutiladi. Shunday ekan, yuridik sohada fan o'qituvchilaridan mashg'ulotlarni rejalashtirayotganda yuqoridagi talablarni inobatga olib, o'qitishning zamonaviy usullaridan eng maqbulini qo'llay olish mahoratiga ega bo'lishlari talab etiladi.

## References:

1. Ziyomammedov B. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma - T.: Turon-Iqbol, 2006.
2. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. - T.: Sharq, 2000.
3. Zunnunov A., U.Mahkamov. Didaktika. - T.: Sharq, 2006. 125 b.
4. Tursunov I.Y., Nishonaliev O'.N. Pedagogika kursi. - T.: O'qituvchi, 1997.
5. O'zbek pedagogikasi tarixi. Tuzuvchi muallif, prof. A. Zunnunov - T.: O'qituvchi, 1997.
6. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. II qism. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
7. Xoshimov K. va boshqalar. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 1995.

Internet saytlar:

1. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
2. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
3. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)